ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA FRAZEOLOGIZMLARNING MA'NOVIY XUSUSIYATLARI

Moxinur Noryigitova
Namangan davlat universiteti 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20062464

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy g'azallarida iboralarning qo'llanilishi, ularning jozibador ma'nolari talqin etilgan. Navoiy asarlarida qo'llangan frazeologik birliklar tilning boy va ifodali vositalari sifatida o'zbekona tafakkur va milliy dunyoqarashni ifodalashdagi o'rni tahlil qilinadi. Navoiy she'riyatida keltirilgan iboralar o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning lingvopoetik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: frazema, obrazlilik, lingvopoetika, ekspressivlik, frazeologik birikma.

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalar frazeologizm (frazeologik birikma)lardir. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
2. Ma’no yaxlitligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Frazeologik birikmalardan o‘rinli foydalanish nutqning ta’sirchanligini ta’minlaydi. Frazeologizmlar gap tarkibida yaxlit holda bir so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.

Frazeologik birliklar boshqa til birliklari singari nutqni ta’sirli va ifodali qiladi shuningdek, ma’lum bir millatning madaniyati, yashash tarzi hamda milliyligini ham ochib berishga xizmat qiladi. Ma’lumki, A.Navoiy she’riyatida qo‘llangan frazeologik birikmalarni lingvopoetik aspektda o‘rganish eski o‘zbek tilining frazeologik boyligini belgilashda, uni hozirgi o‘zbek adabiy tili frazeologiyasi bilan taqqoslab tadqiq etishda boy manbaa bo‘ladi. Chunki “Lingvopoetika nafaqat tilning ijtimoiy vazifa hamda maqsadlariga, shuningdek, uning ko‘plab nazariy-metodologik masalalariga tamomila yangicha yondashish imkonini beradi.

Frazeologik birliklarni har tomonlana o‘rganib, shoir va yozuvchilar ijodi misolida tadqiq etgan, qimmatli ma’lumotlar to‘plagan, muammo va vazifalarni aniq ochib bergan Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, A.E.Mamatov, I.Qo‘chqortoyev, B.Yo‘ldashev, M. Yo‘ldoshev kabi tilshunoslar, shuningdek, frazemalarning lingvopoetik imkoniyatlari esa N. Mahmudov, D.Shodiyeva, G.Jumanazarova, Sh.Toshxo‘jayeva, M.Ahmedova, O.Ochilova, J.Matnazarov kabi tadqiqotchilar ham atroflicha yoritgan.

So‘z ko‘rki bo‘lgan iboralardan foydalanish ilm ahlining so'z boyligini oshiradi, nutqini o'tkir va ta'schan qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi. Alisher Navoiy ijodida ham xalq og‘zaki ijodi namunalari - iboralardan keng foydalanilgan. Navoiy frazemalardan lirik qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda, psixologik, ijtimoiy-maishiy, madaniy voqelikni emotsional-ekspressivlikni ochib berishda juda o‘rinli qo‘llanilgan. Frazeologik birlik (FB)lar fikrning aniq va ochiq ifodasini ta’minlashda boshqa til birliklariga nisbatan o‘ziga xos jihatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy ijodining lingvopoetik tahlilida ham frazeologik birliklar alohida òrin tutadi.

Hushi kirgach, yana nazar etti,
Ko‘rgach o‘q holidin yana ketti

Hushiga kelgach, yana nazar qildi,
Ko‘rdi-yu, yana **holdan ketdi.**

Shu bilan birga “ko‘ngil” komponentli iboralar ham hozirda mavjud bo‘lgan shakllaridan deyarli farq qilmaydi, hatto ko‘pchiligi bir xil shaklda. Masalan, ko‘ngli o‘rtanmoq bunga dalil bo‘la oladi. O‘TFLda ko‘nglini o‘rtamoq –nohaq ravishda iztirob chektirmoq [4. 296.].

Mehr ko‘ziga shomdek ayyom,
Mehrdek **ko‘ngli o‘rtanib** to shom.
[Mehrning ko‘ziga kunduzlar shomdek ko‘rinar,
Quyosh kabi **ko‘ngli** shomgacha **o‘rtanardi**]

Alisher Navoiy g‘azallarining baytlarida shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra ko‘p ma’noli, omonim va sinonim iboralarni ham uchratish mumkin. Shoir ular vositasida betakror va jozibador badiiy timsollar yaratgan. Quyidagi misollarda bosh ko‘tarmoq ko‘p ma’noli iborasi turli xil ma’nolarda qo‘llangan:

Mayda soqiy aksini ko‘rgach egildim o‘pgali,
Bosh ko‘tarmon endi, ya’nikim topibman infiol (G‘S)
Sanam ollida maydin **bosh ko‘tarmon**,
Ki qildi dayr piri mundoq irshod (G‘S)

Bosh ko‘tarmoq iborasi birinchi misolda uyalganidan bosh ko‘tara olmaslik, ikkinchi misolda esa maydan bosh ko‘tara olmaslik ma’nosini ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy she’riyatida iboralardan keng foydalanilgan. G‘azallarda xalq og‘zaki ijodining shaklan ixcham, mazmunan ta’sirchan unsurlari bo‘lgan iboralarning rang-barang va takrorlanmas ifoda usullarini uchratish mumkin. Shuni aytish joizki, asrlar davomida Navoiy asarlarining xalqchilligini ta’minlagan jihatlardan biri ham ana shunda bo‘lsa kerak. Zero, ijod ahli so‘zni xalqdan oladi, unga badiiy sayqal berib yana xalqqa taqdim etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rasulov Ravshanxo‘ja. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 2010, 257-bet.
2. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022, 469-bet.
3. Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII –XIX веков. М., 1982, с. 83-84.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 196-bet.